asarlarida diniy motivlar, ekzistensial izlanishlar va ramziy obrazlar uyg‘unlashib, inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib beradi. Shoira tabiat, mistik tasvirlar va metaforalardan foydalanib, hayotning ma’nosi, inson qismati va Xudo bilan bog‘liq savollarga poetik javob izlaydi. Shu jihatdan, Lavant ijodi nafaqat shaxsiy iztiroblar ifodasi, balki insoniyatning umumiy ruhiy tajribasini aks ettiruvchi adabiy hodisa sifatida qadrlanadi.

Kristine Lavant poetikasi modern adabiyotda individual ruhiyatni, ichki kurashni va ma’naviy izlanishni ifodalovchi noyob uslub sifatida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodi bugungi kunda ham adabiyotshunoslikda chuqur tadqiq etilayotgan, falsafiy va estetik qiymatga ega badiiy meros sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanildan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Doris Moser: „Wenn nicht Himmel dann ordentlich Hölle“. Christine Lavants Leben als Dichterin. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Gedichte (= Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 1), 2014, s. 649–677

(2). Inge Glaser: Christine Lavant. Eine Spurensuche. Wien: Verlag Edition Praesens, 2005

(3). Klaus Amann: Nachwort. In: Christine Lavant: Aufzeichnungen aus dem Irrenhaus. Neu hg. und mit einem Nachwort versehen von Klaus Amann. Göttingen: Wallstein 2016, s. 97–136.

(4). Klaus Amann, Fabjan Hafner, Doris Moser [Hg.]: Drehe die Herzspindel weiter für mich. Christine Lavant zum 100.Göttingen: Wallstein 2015.

(5). Klaus Amann: Nachwort. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Erzählungen (= Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 2), 2015, s. 788–797

(6). Wieland Schmied: Einleitung. Die Welt der Christine Lavant. In: Christine Lavant, Wirf ab den Lehm. Eingeleitet und ausgewählt von Wieland Schmied. Graz: Stiasny 1961 (= Stiasny-Bücherei, 91), s. 5–19.

(7). Wolfgang Wiesmüller: Christine Lavant. In: Kritisches Lexikon zur deutschsprachigen Gegenwartsliteratur [Stand: 01.01.2001]

Saidova Dildora Farhod qizi (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti; Scorpionlady03@gmail.ru)

ROBERT BYORNS SHE’RIYATIDA LIRIK QAHRAMON TIMSOLINING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Robert Byorns she’riyatida lirik qahramon timsolining badiiy ifodalanishi “My Heart’s in the Highlands” she’ri misolida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda lirik qahramon “men”ining vatan sog‘inchi, tabiat bilan uyg‘unligi va erkinlikka intilishi asosiy poetik kategoriyalar sifatida o‘rganiladi. Qolaversa, lirik qahramon tushunchasining she’riyatga kirib kelishi, uninhg nazariy asoslari tadqiq etiladi. Shuningdek, Byorns poetikasining romantizm bilan bog‘liqligi ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *lirik qahramon, romantizm, vatan sog‘inchi, tabiat poetikasi, individualism, elegik, milliy o‘zlik, identiklik, dualizm.*

Саидова Дилдора Фарход кизи (докторантка Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека)

ВОПЛОЩЕНИЕ ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ В ПОЭЗИИ РОБЕРТА БЕРНСА

Аннотация. *В данной статье проводится углубленный анализ художественного выражения образа лирического героя в поэзии Роберта Бернса на примере стихотворения «My heart’s in the highlands». В нем рассматривается лирическое «я» через тоску по родине, гармонию с природой и стремление к свободе как основные поэтические категории. Кроме того, проводится исследование введение концепции лирического героя в поэзию, а также связь поэтики Бернса с романтизмом.*

Ключевые слова: *лирический герой, романтизм, тоска по родине, поэтика природы, индивидуализм, элегия, национальная идентичность, дуализм.*

Saidova Dildora Farhod qizi (PhD student at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek)

THE EXPRESSION OF THE LYRICAL HERO IN THE POETRY OF ROBERT BURNS

Annotation. *This article deeply analyzes the artistic expression of the image of the lyrical hero in the poetry of Robert Burns using the example of the poem “My Heart’s in the Highlands”. The research studies the lyrical “I” as a longing for the homeland, harmony with nature, and the desire for freedom as the main poetic categories. In addition, the introduction of the concept of the lyrical hero into poetry is studied. Also, the connection of Burns’ poetics with romanticism is scientifically highlighted.*

Keywords: *lyrical hero, romanticism, homesickness, poetics of nature, individualism, elegiac, national identity, identity, dualism.*

Kirish. XVIII asr oxiri ingliz ma’rifatchilik davri adabiyotida Shotlandiyalik Robert Byorns va uning ijodi alohida o‘rin egallaydi. Uning she’riyati romantizm va xalqona poetikaning uyg‘unligi bilan ajralib

turadi. Shoir ijodida individual his-tuyg‘ular, insonning ichki dunyosi va tabiat bilan ruhiy bog‘liqlik muhim badiiy kategoriyalar sifatida namoyon bo‘ladi. Byorns o‘z davri uchun xos bo‘lgan klassitsistik me’yorlardan chekinib, insoniy kechinmalarni sodda va samimiy shaklda ifodalashga intiladi. Shu jihatdan, u romantizmning shakllanish jarayonida muhim o‘rin tutgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi.

Shoir ijodida turli mavzular, shotland xalqi an’analari, tabiati, o‘sha davr jamiyatidagi voqeliklar, vatan mahorat bilan she’rga solingan. Xususan, uning “My Heart’s in the Highlands” she’ri shoir ijodida vatanparvarlik va sog‘inch motivlarini ifodalovchi muhim asarlardan biri hisoblanadi [7;126-b.]. Mazkur she’rda lirik qahramonning ruhiy holati markaziy o‘ringa chiqadi va uning ichki kechinmalari poetik vositalar orqali ifodalanadi. Qahramon o‘z yurti – Shotlandiya tog‘lariga bo‘lgan cheksiz mehrini izhor etar ekan, uning tasvirida nafaqat shaxsiy sog‘inch, balki milliy ong va madaniy xotira ham aks etadi. Bu esa she’rni oddiy lirik ifodadan yuqori darajaga ko‘tarib, uni umumxalq hissiyotlarini ifodalovchi poetik matnga aylantiradi.

Shuningdek, ushbu asarda lirik “men”ning ikki qatlamli tabiati kuzatiladi, bir tomondan, u individual shaxs sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u umumlashgan milliy obraz sifatida talqin qilinadi. Bu holat Byorns poetikasining o‘ziga xos jihati bo‘lib, unda shaxsiy kechinmalar ijtimoiy va milliy mazmun bilan boyitiladi[3]. Ayniqsa, tabiat tasvirlari orqali qahramonning ichki dunyosi ochib berilishi romantik adabiyotning asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – “My Heart’s in the Highlands” she’rida lirik qahramon timsolining qanday badiiy vositalar orqali ifodalanganini aniqlash, uning ruhiy va poetik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, tadqiqot Burns she’riyatida lirik qahramonning umumlashgan obraz sifatida shakllanish mexanizmlarini ham ochib berishga qaratilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy adabiyotshunoslikda lirik qahramon masalasi hanuz muhim nazariy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, romantizm davri she’riyatida bu obrazning shakllanishi va funksional ahamiyatini o‘rganish muhim ilmiy natijalarga olib keladi. Byorns ijodi esa bu borada boy material beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Robert Byorns ning *“My Heart’s in the Highlands”* she’ri romantik lirika, milliy identitet va lirik subyektivlik nuqtai nazaridan ko‘plab adabiy-tanqidiy tadqiqotlarda muhim obyekt sifatida ko‘rib chiqilgan. Ushbu bo‘limda mazkur asar va undagi lirik qahramon timsoliga oid mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtiriladi.

Avvalo, an’anaviy adabiyotshunoslikda lirik qahramon masalasi M.H.Abrams tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlar asosida talqin qilinadi. Unga ko‘ra, lirik she’rdagi “speaker” yoki “qahramon” — bu muallifning to‘g‘ridan to‘g‘ri nusxasi emas, balki badiiy konstruksiya hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Byorns she’ridagi lirik “men” ham individual shaxsdan ko‘ra, umumlashgan hissiy tajriba ifodachisi sifatida qaraladi [1;354–356-b.].

Keyinchalik, xususan, romantizm nazariyasi doirasida, she’riyatda lirik qahramonning ichki dunyosi va subyektivligi markaziy o‘rin egallaydi. T.Eagleton fikriga ko‘ra, romantik she’riyatda tashqi voqelikdan ko‘ra, subyektning ichki kechinmalari ustuvor ahamiyat kasb etadi [6;50-b]. Bu yondashuv Byorns she’riga ham tatbiq etilib, undagi “Highlands” obrazi real makon emas, balki qahramon ongida qayta qurilgan ideal makon sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, makon va identitet o‘rtasidagi bog‘liqlik H.Bhabha tomonidan ilgari surilgan nazariy konsepsiyalar orqali izohlanganligini ko‘rish mumkin. Bhabha makonni madaniy identitet shakllanishining muhim elementi sifatida ko‘radi [2;20-b.]. Shu asosda, Byorns she’ridagi Highlands obrazi qahramonning milliy o‘zligini belgilovchi asosiy topos sifatida tahlil qilinadi.

Adabiy tahlillarda yana bir muhim yo‘nalish – bu elegik diskurs masalasidir. Ingliz adabiyotshunosi va leksikografi J.A.Cuddon o‘zining adabiy terminoligiyaga bag‘ishlangan lug‘atida elegiyani yo‘qotish, sog‘inch va vidolashuv bilan bog‘liq janr sifatida ta’riflaydi [4;250-b.]. Byorns she’rida “farewell” birliklarining takroriy qo‘llanishi aynan shu elegik ohangni kuchaytiradi va lirik qahramonni nostalgik subyekt sifatida shakllantiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa ushbu she’r, ko‘pincha, “spiritual exile” (ruhiy surgun) konsepsiyasi orqali tahlil qilinadi. Bu yondashuvga ko‘ra, lirik qahramon jismonan bir makonda bo‘lsa-da, ruhiy jihatdan boshqa makonga–o‘z vataniga bog‘langan holda yashaydi. Natijada uning shaxsiyati ichki ziddiyat asosida shakllanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, *“My Heart’s in the Highlands”* she’ridagi lirik qahramon individual va kollektiv hissiyotlarni uyg‘unlashtiruvchi subyekt, madaniy o‘zlik ifodachisi, elegik kayfiyatdagi romantik obraz, makon va xotira o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi timsol

sifatida talqin qilinadi. Shu bois mazkur she'rni o'rganish nafaqat romantik lirika xususiyatlarini, balki lirik qahramonning murakkab psixologik va madaniy tabiatini ochib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot Metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Robert Byorns she'riyatida lirik qahramon timsolining ifodalanishini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda adabiyotshunoslikning bir nechta samarali metodlari kompleks tarzda qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligiga asoslanadi.

Birinchidan, **matn tahlili (textual analysis)** metodi asosiy tadqiqot vositasi sifatida qo'llanildi. Ushbu metod orqali "My Heart's in the Highlands" she'rining poetik tuzilishi, kompozitsion yaxlitligi, ritmik qurilishi hamda stilistik xususiyatlari batafsil o'rganildi. Xususan, lirik "men"ning ifodalanishi, takror (repetition), metafora va obrazlilik kabi badiiy vositalarning funksional ahamiyati tahlil qilindi. Matn ichidagi semantik qatlamlar ochib berilib, lirik qahramonning ichki kechinmalari bilan poetik shakl o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, **komparativ (qiyosiy) metod** yordamida Byorns poetikasi romantizm nazariyasi bilan solishtirildi. Bu jarayonda romantizmga xos asosiy kategoriyalar – individualizm, tabiatga yaqinlik, hissiyot ustuvorligi va ideal makon konsepsiyasi – Byorns she'riyati bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijada shoirning lirik qahramoni romantik adabiyotdagi umumiy tipologik belgilar bilan qanchalik mos kelishi yoki farqlanishi aniqlab berildi.

Uchinchidan, tematik tahlil (thematic analysis) metodi asosida she'rda yetakchi motivlar tizimi ajratib olindi. Xususan, vatan sog'inchi, tabiat obrazlari va erkinlik g'oyalari alohida tematik bloklar sifatida o'rganildi. Har bir motivning lirik qahramon ruhiyatini shakllantirishdagi o'rni va o'zaro aloqadorligi aniqlashtirilib, bu yondashuv orqali asarning mazmuniy yadrosi va g'oyaviy yo'nalishi tizimli ravishda ochib berildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida kontekstual tahlil elementi ham qo'llanildi. Ya'ni, she'r shotland xalqi tarixiy-madaniy muhiti asosida tahlil etildi. Bu yondashuv Byorns ijodida milliy o'zlik va vatanparvarlik g'oyalarining shakllanishiga yordam berishi aniqlandi.

Bundan tashqari, interpretativ (talqin) yondashuv orqali lirik qahramonning ichki dunyosi, uning subyektiv hissiyotlari va ruhiy holati chuqurroq izohlandi. Bu metod she'rni faqat tashqi struktura emas, balki ichki ma'no qatlamlari orqali ham o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot materiali sifatida "My Heart's in the Highlands" she'ri hamda Byorns ijodiga oid asosiy ilmiy manbalar tanlab olindi. Xususan, shoirning to'liq she'riy to'plamlari, biografik tadqiqotlar va adabiyotshunoslikka oid nazariy asarlar asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Mazkur metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, lirik qahramon timsolini ko'p qirrali va tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Robert Byorns ijodida Vatan, tabiat va inson qalbi o'rtasidagi uyg'unlik muhim o'rin egallaydi. "My Heart's in the Highlands" she'rida esa ushbu g'oya lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali ochib beriladi. She'rda u jismonan boshqa joyda bo'lsa-da, qalban o'z yurtida – tog'lar bag'rida ekanini ta'kidlaydi. Ushbu she'r romantik lirikaning yorqin namunasi bo'lib, unda lirik qahramonning Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati va undan ajralish iztirobi ifodalanganligini ko'rish mumkin. Asarda muallif Shotlandiya tog'lari manzarasi orqali inson qalbidagi sog'inch va nostalgik kechinmalarni badiiy tasvirlaydi.

Farewell to the Highlands, farewell to the north,

The birth-place of Valour, the country of Worth [11].

Avvalo, she'rning "Farewell to the Highlands, farewell to the north" satri bilan boshlanishi lirik nutqning asosiy kommunikativ yo'nalishini belgilaydi. "Farewell" birliklarining takroriy qo'llanilishi matnda anaforik parallelizmni yuzaga keltirib, vidolashuv aktini kuchaytiradi. Ushbu stilistik vosita orqali qahramonning psixologik holati – ajralish, yo'qotish va ichki iztirob tuyg'ulari ochib berilib, intensivlashtiriladi. Natijada, lirik qahramon elegik diskurs egasi [1;4;355–251-b.] sifatida shakllanadi, uning nutqi esa nostalgik-retrospektiv xarakter ya'ni o'tmishni eslab, u davrni sog'inish va bo'lib o'tkan voqealarni qayta eslash kabi tuyg'ularni ilgari suradi.

Keyingi satr – "The birth-place of Valour, the country of Worth" – Highlands obrazining semantik transformatsiyasini ochib beradi. Bu yerda makon oddiy geografik hudud sifatida emas, balki qahramonlik (valour) va axloqiy mukammallik (worth) timsoli sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa, tepaliklar (Highlands) idealizatsiyalashgan vatan toposiga aylanadi. Lirik qahramonning mazkur makonga nisbatan munosabati uning milliy-madaniy o'zlikni belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Wherever I wander, wherever I rove,

The hills of the Highlands for ever I love [11].

Uchinchi satr – "Wherever I wander, wherever I rove" – harakat semantikasi orqali qahramonning jismoniy holatini ifodalaydi. "Wander" va "rove" fe'llari maqsadsiz, erkin harakatni anglatib, subyektning barqaror makondan uzilganini bildiradi. Bu esa lirik qahramonning makoniy beqarorligini va muayyan darajada ekzistensial izlanish holatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu harakat tashqi bo'lib, ichki barqarorlik bilan ziddiyat hosil qiladi.

So'nggi satr – "The hills of the Highlands for ever I love" – semantik jihatdan yakunlovchi va umumlashtiruvchi funksiyani bajaradi. "For ever" ya'ni, "umrbod" so'zi orqali hissiy bog'lanishning abadiyligi ta'kidlanadi. Bu esa qahramonning jismoniy ajralishiga qaramay, uning ruhiy va emotsional markazi o'zgarmasligini anglatadi. Natijada lirik qahramon sadoqatli va hissiy jihatdan barqaror subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur bandda lirik qahramonni vidolashuv holatidagi elegik ong egasi, vatanni idealizatsiya qiluvchi romantik subyekt, jismoniy jihatdan beqaror, ammo ruhiy jihatdan barqaror individ va kuchli emotsional sadoqatga ega shaxs sifatida shakllanganligini ko'rish mumkin.

Shu bois, ushbu lirik qahramon timsoli romantik poetikaga xos bo'lgan ajralish va sadoqat o'rtasidagi ichki dialektik ziddiyatni o'zida mujassamlashtirgan kompleks obraz sifatida baholanadi.

My heart's in the Highlands, my heart is not here.
My heart's in the Highlands, a-chasing the deer.
A-chasing the wild-deer and following the roe,
My heart's in the Highlands, wherever I go [11].

R.Byorns she'rining semantik va diskursiv tahlili lirik qahramon ongida murakkab ontologik dualizm mavjudligini ham yanada chuqurroq tasdiqlaydi. "My heart's in the Highlands, my heart is not here" satri nafaqat oddiy qarama-qarshilik, balki ko'p qatlamli identitet bo'linishini ifodalaydi.

Birinchidan, mazkur konstruktsiyada "heart" (yurak) va "here" (bu yer) birliklari o'zaro semantik oppozitsiyaga kirishadi. "Heart" metaforik jihatdan hissiy markaz, xotira va identitet manbai, ruhiy mavjudlik yadrosi sifatida talqin qilinadi. Aksincha, "here" birlik, jismoniy mavjudlik, majburiy makon, begonalashgan hudud ma'nolarini anglatadi. Natijada qahramon o'zini jismonan bir makonga "joylashtirilgan" ammo ruhiy jihatdan boshqa makonga "tegishli" subyekt sifatida idrok etadi. Bu holat adabiy-nazariy nuqtayi nazardan dislokatsiyalashgan ong (dislocated consciousness) fenomeni sifatida baholanadi.

Ikkinchidan, ushbu dualizm faqat makoniy emas, balki psixologik va ekzistensial xarakterga ega. Qahramon uchun "Highlands" (Tepaliklar) o'tmish xotiralari, shaxsiy tajriba, madaniy ildizlar bilan bog'liq bo'lsa, "here" hozirgi zamon, majburiy ajralish, ichki begonalashuv holatini ifodalaydi. Shunday qilib, vaqt (past vs present) va makon (home vs exile) o'rtasida ham kesishgan dual struktura yuzaga keladi.

Uchinchidan, mazkur ikkilik struktura lirik qahramon nutqining butun diskursiga tarqaladi. Xususan, doimiy vidolashuv ("Farewell") harakatdagi yurak ("a-chasing the deer") kabi obrazlar ushbu ichki bo'linishning dinamik ifodasi sifatida xizmat qiladi. Ya'ni, qahramonning jismoniy harakati emas, balki ruhiy ko'chishi asosiy semantik markazga aylanadi.

To'rtinchidan, bu holat romantik poetikaga xos bo'lgan subyektivlikning ustuvorligini real makonda emas balki his-tuyg'ular orqali idrok etilgan va xotira orqali qayta qurilgan makon sifatida ko'rsatadi. Shu bois, Highlands real geografik hududdan ko'ra, ichki psixologik makon (inner landscape) sifatida namoyon bo'lganligini sezish mumkin. Shunday qilib, ushbu she'rda lirik qahramon makoniy, vaqtli va psixologik jihatdan bo'lingan ammo ichki va tashqi borliq o'rtasida uzilish holatida turgan, o'z identitetini yo'qotmagan, ammo uni masofadan turib anglayotgan murakkab dislokatsiyalashgan subyekt sifatida shakllanganligini ko'rish mumkin. Shu orqali mazkur obraz romantik lirika uchun xos bo'lgan "spiritual exile" (ruhiy surgun) modelining nafaqat mavjudligini, balki uning chuqur psixologik va semantik asosga ega ekanini ham isbotlaydi.

Farewell to the mountains high-cover'd with snow.
Farewell to the straths and green vallies below.
Farewell to the forests and wild-hanging woods.
Farewell to the torrents and loud-pouring floods [11].

Berilgan parchada lirik qahramonning nutqi va ruhiy holati chuqur nostalgik-retrospektiv xarakterga ega bo'lib, u o'z ona yurti bilan xayrlashish jarayonida ichki kechinmalarini ifodalaydi. Matn kompozitsion jihatdan takror (anafora) asosida qurilgan: har bir misra "*Farewell to...*" (Xayr bo'lsin...) iborasi bilan boshlanadi. Bu usul lirik qahramonning hissiy zo'riqishini kuchaytiradi va xayrlashuv jarayonining izchil,

bosqichma-bosqich kechayotganini ko‘rsatadi. Takror orqali uning ichki iztirobi, ajralish og‘rig‘i yanada ta’sirchan ifodalanadi.

Ushbu parchada lirik qahramon obrazi bu tabiat bilan uzviy bog‘langan, o‘z yurti va makoniga chuqur mehr qo‘ygan shaxsdir. U “tog‘lar”, “vodiylar”, “o‘rmonlar”, “daryolar” kabi tabiiy unsurlarni sanab o‘tadi. Bu yerda tabiat detallarining ko‘pligi shuni anglatadiki, qahramon uchun Vatan faqat geografik makon emas, balki hissiy va ruhiy qadriyatdir. Tabiat obrazlari orqali uning ichki dunyosi ochiladi, shoir o‘z yurtining har qanday tabiat hodisasini ya’ni vodiylari, qor bilan qoplangan tog‘lari, yovvoyi o‘rmonlari-yu jo‘shqin daryolarigacha qadrlashini sezishimiz mumkin.

Semantik jihatdan nutq retrospektiv yo‘nalgan, ya’ni qahramon ayni damda ketayotgan bo‘lsa-da, uning ongida o‘tmish manzaralari jonlanadi. Har bir tasvir bu faqat hozirgi manzara emas, balki xotiralar bilan sug‘orilgan timsollardir. Shu bois nutqda nostalgiya (sog‘inch) yetakchi motiv sifatida namoyon bo‘-ladi.

Shuningdek, lirik qahramonning holati dramatik-lirik xarakterga ega: tashqi tomondan u shunchaki xayrlashmoqda, ammo ichki qatlamda–bu ruhiy iztirob, ajralish fojiasi. U tabiat bilan xayrlashar ekan, aslida, o‘zining o‘tmishi, xotiralari va ehtimol, o‘z “men”ining bir qismi bilan vidolashayotkandek tuyuladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu parchada lirik qahramon o‘z yurti bilan chuqur hissiy bog‘langan, o‘tmishga sog‘inch bilan qaraydigan (nostalgik), voqealarni xotira orqali qayta idrok etuvchi (retrospektiv), ajralish iztirobini boshdan kechirayotgan obraz sifatida gavdalanadi. Bu esa matnga kuchli emotsional va falsafiy mazmun bag‘ishlaydi.

Xulosa. Robert Byornsning *“My Heart’s in the Highlands”* she’rining birinchi bandi asosida olib borilgan tahlil natijalari orqali lirik qahramon timsolining murakkab va ko‘p qatlamli tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot jarayonida mazkur obraz romantik poetikaga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarni – subyektivlikning ustuvorligi, makonning idealizatsiyasi va hissiy tajribaning markaziyligini o‘zida mujassamlashtirganligi aniqlandi.

Xususan, lirik qahramon vidolashuv akti orqali elegik kayfiyatdagi subyekt sifatida shakllanib, uning nutqi yurtini tark etib, uni sog‘ingan va o‘tmishni eslab gapirayotgan inson sifatida tasvirlanadi.Highlands obrazi esa real geografik makondan yuqoriga ko‘tarilib, qahramonning milliy-madaniy identitetini ifodalovchi ideal makon sifatida talqin qilindi. Shu bilan birga, qahramonning jismoniy harakati va ruhiy sadoqati o‘rtasidagi qarama-qarshilik uning ichki murakkabligini ochib berdi. She’r tahlilida lirik qahramon bir vaqtning o‘zida ajralish holatidagi elegik ong egasi, vatanni ideallashtiruvchi romantik subyekt, makoniy jihatdan beqaror, ammo hissiy jihatdan barqaror individ sifatida namoyon bo‘lganligi aniqlandi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, mazkur she’rda yaratilgan lirik qahramon timsoli romantik adabiyot uchun xarakterli bo‘lgan ichki ziddiyat (ajralish va sadoqat), emotsional chuqurlik va makoniy idealizatsiyaning sintezlashgan modelini ifodalaydi. Bu esa asarning nafaqat individual tajribani, balki umumlashgan insoniy kechinmalarni ham aks ettirishini ta’minlaydi.

Natijada ushbu lirik qahramon obrazi o‘quvchi bilan kuchli o‘zlikni anglash imkonini yaratib, she’r-ning estetik va semantik ta’sir doirasini kengaytiradi hamda uni romantik lirikaning muhim namunasiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abrams M.H., Harpham G.G. A glossary of literary terms. Boston: Cengage Learning, 2015, 350–365 p.

(2). Bhabha H.K. The location of culture. London, Routledge, 1994m 1–25 p.

(3). Robert Burns. The complete poems and songs of Robert Burns. Edinburgh, Canongate Classics, 2009, 512–514 p.

(4). Cuddon J.A. The Penguin dictionary of literary terms and literary theory. London, Penguin Books, 2013, 248–252 p.

(5). Daiches D. Robert Burns. London, Thames and Hudson, 1950, 89–105 p.

(6). Eagleton T. Literary theory: An introduction. Minneapolis, University of Minnesota Press, 2008, 45–60 p.

(7). Leask N. Robert Burns and pastoral: poetry and improvement in late eighteenth-century Scotland. Oxford, Oxford University Press, 2010, 120–135 p.

(8). McGuirk C. (ed.). The Cambridge companion to Robert Burns. Cambridge, Cambridge University Press, 2014, 70–85 p.

(9). Crawford R. Burns and Scottish identity. Studies in Scottish Literature. 1998, №1 (30-jild). 45–60-betlar.

(10). McIlvanney L. Robert Burns and the politics of identity. Journal of British Studies. 2000, №2 (39-jild), 203–222-betlar.

(11). https://www.panmacmillan.com/blogs/literary/robert-burns-poems-scottish-auld-lang-syne